

FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

NAZAROVA Muslima Nazarovna
TDIU “Bank ishi” kafedrası dotsenti,
i.f.f.d.PhD
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15221870>

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA NOBANK KREDIT TASHKILOTLARI FAOLIYATI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan nobank kredit tashkilotlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda bugungi kunda respublikamizda faoliyat olib borayotgan nobank kredit tashkilotlarining statistik ma‘lumotlari tahlil qilingan. Bundan tashqari O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan nobank kredit tashkilotlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda bugungi kunda respublikamizda faoliyat olib borayotgan nobank kredit tashkilotlarining statistik ma‘lumotlari tahlil qilinishiga qolmay, chuqur mulohaza qilingan desak mublag‘a bo‘lmaydi.

Kalit so‘zlar: nobank kredit tashkilotlari, samaradorlik, mikromoliya tashkilotlari, aktiv, kapital, rentabellik, likvidlilik.

ACTIVITIES OF NON-BANK CREDIT ORGANIZATIONS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THEIR DISTINCTIVE FEATURES

ANNOTATION

This article analyzes the statistical data of non-bank credit organizations operating in Uzbekistan, their distinctive features and non-bank credit organizations operating in our republic today. Moreover, it is not an exaggeration to say that the statistical data of non-bank credit organizations operating in Uzbekistan, their specifics and non-bank credit organizations operating in our republic today are not analyzed, but deeply reflected.

Key words: non-bank credit organizations, efficiency, microfinance organizations, asset, capital, profitability, liquidity.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НЕБАНКОВСКИХ КРЕДИТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН И ИХ СПЕЦИФИКА

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализированы действующие в Узбекистане небанковские кредитные организации, их особенности, а также статистические данные небанковских кредитных организаций, действующих сегодня в нашей республике. Кроме того, не будет преувеличением сказать, что были не только проанализированы, но и глубоко продуманы статистические данные о функционирующих в Узбекистане небанковских кредитных организациях, их особенностях, а также о функционирующих сегодня в нашей республике небанковских кредитных организациях.

Ключевые слова: небанковские кредитные организации, эффективность, микрофинансовые организации, актив, капитал, рентабельность, ликвидность.

Kirish

Bugungi kunda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha respublikamizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tomonidan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda ular daromadini oshirishga qaratilgan xarajatlarni chuqur tahlil qilgan holda aholini turmush darajasini yanada yaxshilash uchun chora-tadbirlar qilinmoqda.

Aholi turmush darajasining keskin tabaqalanishini oldini olish ko‘p jihatdan davlatlarda moliya bozorining, xususan nobank kredit tashkilotlari faoliyati rivojlanganligi bilan bog‘liq ekanligi namoyon bo‘lmoqda. Oxirgi o‘n yilda dunyo davlatlarida kambag‘allik darajasi pasayib borgan bo‘lsada, ammo pandemiya holati bu tendensiyani o‘zgartirib yubordi. 2020-yildagi Covid-19 pandemiyasi Jahon banki tomonidan hisobi olib boriladigan ko‘p o‘lchovli qashshoqlik indeksini (Multidimensional Poverty Index (MPI)) oshirib yuborgan. Xususan, 2020-yildagi global qashshoqlikda 621,1 million kishi prognoz qilingan bo‘lsa, aslida bu ko‘rsatkich 713,8 million kishini tashkil qilgan, hamda 2022-yildagi global qashshoqlikda 581,3 million kishi prognoz qilingan bo‘lsa, aslida bu ko‘rsatkich 656,7 million kishini tashkil qilgan [6].

Bu esa davlatlarda nobank kredit tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Nobank moliyaviy korxonalarining yana bir hususiyati shundan iboratki, ushbu kompaniyalar bankning ma‘lum bir xizmatini o‘zida mujassam etadi. Misol uchun, mikromoliyaviy tashkilotlar faqat mikrokredit, mikroqarz va mikroleasing berish operatsiyalari bilan shug‘ullanadi. Ammo ushbu turdagi operatsiyalardan tijorat banklari ham foydalanadi. Yana bir misol, faktoring kompaniyalaridir. Ushbu kompaniyalar mijozlarining muddatli o‘tmagan debitorlik qarzlarni sotib olish orqali ularni moliyalashtirish bilan shug‘ullanadi. Shu bilan birga tijorat banklari ham faktoring xizmatlari mavjud. Shunday ekan, nobank moliya tashkilotlari bankning ma‘lum bir funksiyasini o‘zida birlashtiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Nobank moliya tashkilotlarining iqtisodiyotda tutgan o‘rni, mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni, ushbu tashkilotlar faoliyatiga ta‘sir qiluvchi omillar yuzasidan mahalliy va xorijiy adabiyotlarda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ushbu tadqiqotlarning ayrimlari bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

B.Gutierrez-Nieto va boshqalar mikromoliyaviy tashkilotlar samaradorligini tahlil qilishgan. Ularning fikricha, mikromoliyaviy tashkilotlar nafaqat ijtimoiy tashkilotdir, balki foyda olishga ixtisoslashgan moliyaviy tashkilot hisoblanadi. Yuqoridagi iqtisodchilar Lotin Amerikasida joylashgan 30 ta mikromoliyaviy tashkilotlarning samaradorligini ma‘lumot-larning nisbiy tahlili (Data Envelopment Analysis (DEA)) modelidan foydalangan. Tahlil natijalariga ko‘ra, mikromoliyaviy tashkilotlar samaradorliga to‘rtta ko‘rsatkich ta‘sir ko‘rsatib, ularning ichida davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar ta‘siri, shu bilan birga mikromoliyaviy tashkilotlarning nodavlat tijorat tashkilot hamda nodavlat va notijorat tashkiloti kabi tashkiliy maqomining ta‘siri yuqori ekanligini aniqlashgan [1].

R.Mersland va R.Strøm kabi olimlar mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyat samaradorligi bilan undagi korporativ boshqaruv o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishgan. Ular mikromoliyaviy tashkilotda boshqaruv kengashining xususiyatlari, mulkchilik turi, raqobat va tartibga solish usullarining mikromoliyaviy tashkilotlarning kambag‘al mijozlar qatlami bilan ishlashi va uning samaradorlikka ta‘sirini tahlil qilishgan. Tahlillar shuni ko‘rsatganki, mikromoliyaviy tashkilotlarida kengash raisi va va boshqaruv raisi vazifalarining bir-biridan aniq ajratilganligi, boshqaruv raisida ayol kishining bo‘lishi hamda mamlakatdagi raqobat muhiti mikromoliyaviy tashkilotlarining samaradorligiga va mamlakatdagi kambag‘allarning sharoitini keng ta‘sir qilishi aniqlangan. Xususan, mikromoliyaviy tashkilotida kengash a‘zolari ko‘pchilikdan tashkil topgan bo‘lsa, ushbu tashkilotda kreditlash hajmini kamaytirgan. Shuningdek, mikromoliyaviy tashkilotlarning mulkchilik shakli, ya‘ni uning nodavlat tashkiloti yoki aksionerlik jamiyatidan tashkil topishi samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta‘siri sezilmagan [2].

N.Hermes, R.Lensink, va A.Meesters kabi iqtisodchilar mikromoliyaviy tashkilotlarining kambag'allikni qisqartirish yo'lida kreditlar ajratishi bilan uning samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishgan. Tahlilda 435 ta mikromoliya tashkilotining 1997-2007-yillardagi statistik ma'lumotlaridan foydalangan holda stoxastik chegara tahlil (stochastic frontier analysis (SFA)) modelini qo'llashgan. Tahlil natijalariga ko'ra, 1300 dan ortiq kuzatuvlardan aholining kambag'al qatlamini kreditlash va mikromoliyaviy tashkilotlari samaradorligi o'rtasida teskari proporsionallik mavjudligi aniqlangan [3].

Darxaqiqat, mikromoliyaviy tashkilotlar tomonidan aholining kambag'al qatlamini kreditlar birinchidan, katta xarajat tursa, ikkinchidan katta risk bilan bog'liqdir. Chunki, ushbu mijozlar moliyaviy nobarqaror mijozlar hisoblanadi.

B.Gutiérrez-Nieto, C.Serrano-Cinca, va C.Mar Molinero kabi iqtisodchilar fikricha mikromoliya tashkilotlari moliyaviy dunyoda alohida holatdir. Ular ikki tomonlama, ya'ni ham moliyaviy ham ijtimoiy rolga ega va ikkalasida ham samarali bo'lishi kerak. Mikromoliya tashkilotlar moliyaviy samaradorligini tahlil qilish uchun ular an'anaviy moliya institutlari uchun mavjud adabiyotlarga tayangan. Bunga ular ijtimoiy faoliyatning ikkita ko'rsatkichini qo'shgan, ya'ni ayollarga ta'sir va qashshoqlik indeklaridir. Ijtimoiy va moliyaviy samaradorlik, samaradorlik va rentabellik kabi boshqa ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikka tayangan mikromoliya tashkilotlari haqida bir qator farazlar ishlab chiqilgan. mikromoliya tashkilotlarining ijtimoiy samaradorligi va ularning turlari o'rtasidagi bog'liqlik - nodavlat tashkilot, nodavlat notijorat tashkiloti va faoliyatning geografik mintaqasining ahamiyati kabi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilgan. Natijalar ijtimoiy samaradorlikni baholashning ahamiyatini ochib bergan [4].

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, mikromoliya tashkilotlar faoliyatini tahlil qilishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Statistika qo'mitasining hamda mikromoliya tashkilotlarining rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Nobank kredit tashkilotlar moliya bozorining ajralmas elementlaridan biriga aylangan. Nobank kredit tashkilotlari tarkibiga kiruvchi mikromoliya tashkilotlari to'g'risidagi dastlabki qonun 2006-yil 28-iyunda qabul qilingan bo'lib (hozirda ushbu qonun o'z kuchini yo'qotgan), bunda mikromoliya tashkilotlariga "Mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ushbu Qonunga muvofiq boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs mikromoliya tashkilotidir" degan tavsif berilgan.

2017-yildan keyin mamlakatimizda moliya-kredit sohasida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Chunki, yuqorida qayt etilgan qonun zamon talablariga javob bermay qoldi. Shuni inobatga olgan holda, 2022-yil 20-aprelda "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-765-son qonun kuchga kirdi va ushbu qonunning maqsadi nobank kredit tashkilotlari faoliyati va mikromoliyalashtirish faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratligi alohida belgilab qo'yildi.

Iqtisodiy adabiyotlardan shuni aniqladikki, nobank kredit tashkilotlari samaradorligi bo'yicha ko'lam kengligi uning ijtimoiy faoliyatining samaradorligini anglatadi. Biz ilmiy ishimizning birinchi bosqichida nobank kredit tashkilotlari tarkibiga kiruvchi mikromoliya tashkilotlar faoliyatini tahlil qilganmiz. Mikromoliya tashkilotlarining samaradorlik bo'yicha ko'lam kengligini tahlil qilishda bir qancha ko'rsatkichlardan foydalanganmiz. Xususan, mikromoliya tashkilotlari sonining o'zgarishi, mikromoliya tashkilotlari kreditlarining yillik o'sishi, mikromoliya tashkilotlarining aktivlariga nisbatan rivojlanganlik darajasi, 10 mlrd. so'm va undan ortiq summadagi mikromoliya tashkilotlari aktivlari o'zgarishi, mikromoliyaviy tashkilotlar aktivlarining YAIM va tijorat banklari aktivlariga nisbati, mikromoliyaviy tashkilotlar kreditlarining YAIM va tijorat banklari kreditlariga nisbati va mikromoliyaviy tashkilotlar aktivlari va kreditlari real hajmining bazis yildagi (2016-yildagi) YAIMga nisbati kabi ko'rsatkichlar orqali samaradorlik bo'yicha ko'lam kengligini aniqlashimiz mumkin.

Mikromoliya tashkilotlarining samaradorlik bo'yicha ko'lam chuqurligi bizga ushbu tashkilotlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda yordam beradi. Shunday ekan, mikromoliya tashkilotlarining samaradorlik bo'yicha ko'lam chuqurligini tahlil qilishda mikromoliya tashkilotlarining kreditlarining aktivlardagi ulushi, mikromoliya tashkilotlari balans passivining taqsimoti, mikromoliya tashkilotlar kapital tarkibi, mikromoliya tashkilotlari likvidligining o'zagirish dinamikasi hamda mikromoliya tashkilotlar rentabellik ko'rsatkichlari kabi ko'rsatkichlarni tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Mikromoliya tashkilotlari, kichik tadbirkorlar va kam ta'minlangan guruhlariga kichik qarz kapitali va boshqa moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beruvchi tashkilotlardir. Ular odatda mintaqaviy yoki mahalliy darajada ishlaydi.

Mikromoliya tashkilotlari kichik miqdordagi qisqa muddatli kreditlarni beradi. Rasmiylashtirishning qulayligi va minimal talablar ularni bank xizmatlariga cheklangan kirish imkoniyati bo'lgan odamlar orasida mashhur qiladi.

Mikromoliya tashkilotlarining ko'lam chuqurligini tahlil qilganda dastlab ushbu takilotlar balans passivini, ya'ni moliyaviy resurslar manbalarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizni davom ettirgan holda, mikromoliya tashkilotlari jamlanma balansini tahlilini ko'rib chiqamiz.

1-jadval

Mikromoliya tashkilotlari jamlanma balans¹

Ko'rsatkichlar nomi	01.02.2024 y.		01.02.2025 y.		o'zgarishi, foizda
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	
Aktivlar					
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	40,6	0,9%	67,5	0,8%	66,4%
Banklardagi mablag'lar	89,7	1,9%	155,8	1,8%	73,6%
Kreditlar va mikrolizing, (sof)	4 189,5	89,4%	7 837,9	92,5%	87,1%
Asosiy vositalar, (sof)	87,5	1,9%	105,9	1,2%	21,1%
Hisoblangan foizlar	103,8	2,2%	146,4	1,7%	41,1%
Boshqa aktivlar	175,5	3,7%	163,2	1,9%	-7,0%
Jami aktivlar	4 686,6	100,0%	8 476,7	100,0%	80,9%
Majburiyatlar					
To'lanishi lozim bo'lgan kreditlar, qarzarlar va lizinglar	2 303,2	78,7%	5 135,0	85,5%	122,9%
To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	43,1	1,5%	91,3	1,5%	111,9%

¹ www.cbu.uz sayti ma'lumotlaridan olindi.

To‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan soliqlar	13,7	0,5%	25,0	0,4%	83,0%
Boshqa majburiyatlar	567,3	19,4%	754,3	12,6%	33,0%
Jami majburiyatlar	2 927,3	100,0%	6 005,6	100,0%	105,2%
Kapital					
Ustav kapitali	821,7	46,7%	1 277,2	51,7%	55,4%
Zaxira kapitali	59,1	3,4%	101,5	4,1%	71,8%
Taqsimlanmagan foyda	811,6	46,1%	1 011,9	40,9%	24,7%
Joriy yil foydasi (zarar)	66,9	3,8%	80,5	3,3%	20,4%
Jami kapital	1 759,3	100,0%	2 471,1	100%	40,5%

Jadvalda mikromoliya tashkilotlari jamlanma balansi aks ettirilgan bo‘lib, aktivlar, majburiyatlar, kapital hamda jami kapitallarning 2024 yil 1 fevral holati 2025 yil 1 fevral holatiga nisbatan solishtirilgan. Ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibiki, kassadagi naqd pul va boshqa to‘lov hujjatlari solishtirilganda oshganini ko‘z atash mumkin. Shu bilan birga, banklardagi mablag‘lar, kreditlar va mikrolizing, taqsimlanmagan foyda, ustav kapitali kabi ko‘rsatkichlar aks ettirilgan.

Nobank kredit tashkilotlari, odatda, asosan kredit berishga qaratilgan cheklangan miqdordagi moliyaviy xizmatlarni taqdim etadilar. Ular omonat hisobvaraqlari, hisobvaraqlarni tekshirish va hokazo kabi to‘liq bank xizmatlarini taqdim etmaydi. ankan tashqari kredit tashkilotlari ko‘pincha mijozlarning kredit kuchi va zaif kredit sharoitida mijozlarga kredit berish bo‘yicha ko‘proq moslashuvchan bo‘lishi mumkin. Kredit berishning yuqori xavfi tufayli, bankdan tashqari kreditorlar tijorat banklariga qaraganda yuqori foiz stavkalari bilan ishlaydilar.

Mikromoliya tashkilotlari moliyaviy resurslar tarkibining bu kabi o‘sishi birinchidan, majburiyatlar qismida kapital qismiga qaraganda katta o‘shish kuzatilgan bo‘lsa, ikkinchidan mikromoliya tashkilotlar nafaqat o‘zlari-ning resurslariga, balki ushbu resurslarni jalb qilishga ham katta e‘tibor qaratayotganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, mikromoliya tashkilotlari kreditlarining foizi tijorat banklari kreditlari foizidan ancha yuqori yurishi hamda banklardan farqli ravishda mikromoliya tashkilotlari aktiv operatsiyalarida kreditlar salmog‘i sezilarli darajada katta ekanligiga (90-95 foiz atrofida) qaramasdan ushbu tashkilotlar rentabelligi tijorat banklari rentabelligiga yaqin bo‘lmoqda. Bunga asosiy sabablardan biri sifatida mikromoliya tashkilotlarida operatsion xarajatlarning, va uning tarkibida ish xaqi xarajatlari katta ekanligi va buning natijasida sof foyda kamayib ketmoqda.

Mikromoliya tashkilotlarida rentabellikni oshirish sifatida ularning mulkchilik shaklini mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklidan aksionerlik jamiyatiga o‘tkaziy maqsadga muvofiqdir. Ushbu yo‘lda xukumatimiz tomonidan kerakli me‘yoriy xuddatlar qabul qilingan bo‘lib, mikromoliya tashkilotlari mulkchilik shaklini o‘zgartirishga yo‘llar ochilgan. Ushbu taklifni berishimizga sabab bu – agar mikromoliya tashkilotlari mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklida egasi sanoqli insonlardan tashkil popgan holda, ular o‘z navbatida operatsion xarajatlarni oshirib yuboradi. Agar mikromoliya tashkilotlarni aksionerlik jamiyatiga o‘tkazilsa, aksionerlari soni oshishi va ular ish xaqi shaklida resursni tashkilotdan chiqarib olmasligi mumkin.

Mikrokredit tashkilotlarini aksionerlik jamiyatiga o'tkazishdagi asosiy muammolardan biri sifatida mamlakatimizda aksionerlik jamiyatlari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoblarini xalqaro moliyaviy hisob standartlariga o'tkazishga majburligini keltirishimiz mumkin. Chunki bu mikrokredit tashkilotlariga katta xarajatni talab qiladi.

Xulosa

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, mikromoliya tashkilotlari moliyaviy resurslar tarkibining o'sishi birinchidan, majburiyatlar qismida kapital qismiga qaraganda katta o'sish kuzatilgan bo'lsa, ikkinchidan mikromoliya tashkilotlar nafaqat o'zlarining resurslariga, balki ushbu resurslarni jalb qilishga ham katta e'tibor qaratayotganligidan dalolat beradi.

Fikrimizcha barcha turdagi nobank kredit tashkilotlari o'ziga xos mijozlarga xizmat ko'rsatishga qaratilgan. Kredit berishni ma'lum darajada soddalashtirish nobank kredit tashkilotlariga har xil turdagi tadbirkorlar uchun qo'shimcha jozibadorlikni berishi kerak. Lekin asosiysi, bularning barchasi milliy qonunchilik tomonidan yaratilgan tegishli huquqiy tomonlariga e'tibor qaratishlari zarur. Nobank kredit tashkilotlari iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi, chunki ular kichik va o'rta biznes sub'ektlari, shuningdek, an'anaviy bank tizimlaridan chetda qolishi mumkin bo'lgan aholiga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Ushbu tashkilotlar kreditlashning turli turlarini, jumladan, iste'mol kreditlari, mikrokreditlar va kichik biznes kreditlarini taklif qilishadi.

Mikromoliya tashkilotlariga 2022-yilda o'zlarining hisob-raqamlarini tijorat banklarida emas, balki Markaziy bankda ochishga ruxsat berildi. Bu ularga tijorat banklari kabi pul massasini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, bu mikromoliya tashkilotlariga talab qilib olunguncha va muddatli depozitlarni qabul qilishga imkoniyat berdi va ular tomonidan boshqa moliya tashkilotlaridan kredit va qarz jalb qilgandan ko'ra muddatli depozitlar jalb qilish afzal bo'lib qoldi. Shundan kelib chiqqan holda, Imkon Finans mikromoliya tashkiloti majburiyatlari tahlilidan xulosa qilishimiz mumkinki, mikromoliya tashkilotlar rusurs jalb qilishda faqatgina muddatli depozitlarga bog'liq bo'lib qolgan.

IQTIBOSLAR. REFERENCES. ЧОСКИ.

1. Gutierrez-Nieto, B., Serrano-Cinca, C., & Molinero, C. M. (2007). Microfinance institutions and efficiency. *Omega*, 35(2), 131-142.
2. Mersland, R., & Strøm, R. Ø. (2009). Performance and governance in microfinance institutions. *Journal of Banking & Finance*, 33(4), 662-669.
3. Hermes, N., Lensink, R., & Meesters, A. (2011). Outreach and efficiency of microfinance institutions. *World development*, 39(6), 938-948.
4. Gutiérrez-Nieto, B., Serrano-Cinca, C., & Mar Molinero, C. (2009). Social efficiency in microfinance institutions. *Journal of the operational research society*, 60(1), 104-119.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma'lumotlari
6. <https://www.worldbank.org> ma'lumotlari.